

*Yagonasan, muqaddas Vatanim,
sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!*

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:40 (66997)

2014-yil
6-oktabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**MAXSUS
SON**

**NAMANGAN VILOYATINING O'QUVCHILARI VA
ULARNING USTOZLARIGA BAG'ISHLANADI**



*Onamdek boshimni silaydi Vatan,
Har tong iqbolimni tilaydi Vatan!*

DIQQAT! DIQQAT!
«TONG YULDUZI»
gazetasiga obuna mavsumi
boshlandi

Qadrlil o'quvchilar!
Sevimli nashringiz
«Tong yulduzi» gazetasiga kelasi
yil uchun obuna bo'lishga shoshiling.
Gazetangizda 2015-yilda yanada qiziqarli,
rang-barang, mazmunli, voqealarga
boy maqola, xabarlar, she'r, ertak va
hikoyalar chop etiladi.
U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi
vazifasini o'taydi.

**Nashr
ko'rsatkichi - 198**



Suratlar muallifi: N. SULTONOV

Ustodi avvalsiz, komil va mumtoz, Siz ulug' muallim, murabbiy, ustoz!

Har gal namanganlik o'quvchilar davrasiga yo'l o'lar ekanmiz, qalbiz faxr-iftixorga to'ladi. Sababi, ilmga chanqoq, izlanuvchan, yangicha fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli o'g'il-qizlarning yutuqlari, orzu-oylari haqida suhbatlashish bizga ham zavq bag'ishlaydi-da.

Namangan viloyatiga qilgan bu galgi safarimiz 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar bayrami arafasida bo'ldi. Viloyatdagi bilim maskanlarida bo'lganimizda o'qituvchi va o'quvchilarning bayramona kayfiyati, quchog'i gullarga burkangan ustozlarning yuzko'zlarida o'z kasbidan mamnunlik hissi namoyon edi.

Yaqinda Respublika bolalar kutubxonasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami munosabati bilan «Ta'lim va tarbiya uyg'unligi - barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili» mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Unda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, xususan, ta'lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarish yo'lida olib borilayotgan islohotlar haqida, ustoz va murabbiylarni har tomonlama rag'batlantirish kabi ishlar to'g'risida axborot berildi.

Budget hisobidan 35 foiz mablag' aynan ta'lim-tarbiyaga ajratilayotgani alohida e'tirof etildi. O'qituvchi va murabbiylar kasbini ulug'lash, ularning obro'-e'tiborini oshirish barobarida bugungi kunda o'qituvchi lavozimiga bo'lgan raqobatning o'sib borishi kuzatilmoqda. Maktablarga barcha yoshlarni



cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot bo'layotgan jonkuyar ustozlar va ularning shogirdlari haqida hikoya qilamiz.

Maxsus sonni tayyorlash arafasida O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni matbuotda e'lon qilindi.

Unga ko'ra, Respublikamizdagi fidoyi oqituvchi va murabbiylar qatorida namanganlik ustozlar davlatimizning yuksak mukofotlari — orden va medallar bilan taqdirlandi. Jumladan, Uchqo'rg'on tumanidagi 34-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Mahmuda Jo'ramirzayeva «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi», Namangan tumanidagi 37-umumta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi Valijon Abdullayev «Mehnat shuhrati» ordeni, Mingbuloq tumanidagi 12-bolalar va o'smirlar sport maktabining voleybol bo'yicha murabbiyi Ma'rifjon Mahmudov II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni, Namangan qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi Rustambek Ahmadjonov «Do'stlik» ordeni, Namangan



shahridagi 6-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi Dilorom Jo'rayeva, Chust sanoat kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi Abdalim Satimov, Uychi tumanidagi 11-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi Hakimjon Yunusov «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi. Biz ham ustozlarga qarata, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda sizlarga kuch-quvvat, sog'lik tilaymiz, mukofot muborak, deymiz!

jalb qilish ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'tgan o'quv yilida jami 47 ta uzoq tuman va qishloq aholi punktlarida chet tillar o'qituvchilari ixtisosligi



bo'yicha qo'shimcha kadrlarni tayyorlash uchun 265 nafar abituriyent oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabul qilindi. Chet tili o'qituvchilari Davlat test markazi tomonidan doimiy ravishda sinovlardan o'tkazilib, ularning maoshiga qishtiqliq joylarda 30 foiz va boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz miqdorida ustamalar qo'shib berilmoqda.

1992-2014-yillar davomida Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi jami 3594 nafar ustoz va murabbiylar turli davlat mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlandi. Shulardan 7 nafari «O'zbekiston Qahramoni», 110 nafari «El-yurt hurmati» ordeni, 31 nafari «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni, 284 nafari «Mehnat shuhrati» ordeni, 515 nafari «Sog'lom avlod uchun» ordeni, 374 nafari «Do'stlik» ordeni, 312 nafari O'zbekiston xalq o'qituvchisi, 329 nafari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, 1356 nafari «Shuhrat» medali, 12 nafari «Jasorat» medali va boshqa unvonlar bilan rag'batlantirildi.



ZUBAYDA olgan suratlar

ENG OBOD TA'LIM MUASSASASI

ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egalladi.

Namangan tumanidagi 32-umumta'lim maktabi bilan yaqindan tanishgan Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek INOYATOVning: «Haqiqatan ham mazkur maktab eng obod ta'lim muassasasi nomiga munosib ekan», degan gaplari maktab jamoasini to'liqlantirib yubordi. Bu rag'bat o'quvchi va o'qituvchilarning mas'uliyatini yanada oshirib, ularning g'ayratiga g'ayrat qo'shdi.



Ushbu umumta'lim maktabi 2006-yilda kapital rekonstruksiya qilingan. Maktabdagi barcha o'quv xonalari zamon talablari asosida DTS talablariga mos holda jihozlangan, ayniqsa, fizika, kimyo, biologiya, chizmachilik, tasviriy san'at xonalari alohida o'quv jihozlari bilan ta'minlangan.

Hozirgi kunda maktabda 1454 nafar o'quvchilar bo'lib, 70 nafar pedagoglar faoliyat yuritadi.

Tajribali rahbar Olimjon aka Haydarov «Yilning eng yaxshi maktab direktori — 2013» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan. Olimjon aka kabi maktabning jonkuyar ustozlaridan D.Ahadova, I. D a d a m i r z a y e v a, A.Boyxonov, M.Xalilova, X.Zokirovning samarali mehnati tufayli maktab o'quvchilari tuman, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilayotgan tanlovlarning doimiy ishtirokchilari va sovrindorlari bo'lishmoqda. Natijada, maktab viloyat, respublikada o'z o'rniga ega bilim maskanlaridan biriga aylandi.

Darvoqe, ushbu maktab o'quvchilari ham «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishar ekan. Maktab rahbari 2015-yilda ham «Tong yulduzi» gazetasiga 200 nusxa obuna bo'lishlarini ta'kidladilar.



Namangan tumanidagi umumta'lim maktablarida 937 ta sinf bo'lsa, 1–9-sinflarda jami 28058 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

Namangan tumanida xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 39 ta umumta'lim maktablari, 2 ta boshlang'ich ta'lim maktablari va 1 ta Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, 33 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 1 ta Bolalar san'at va musiqa maktabi, 1 ta Barkamol avlod markazi, 3 ta Bolalar va o'smirlar sport maktablari faoliyat yuritadi.

BIR MAKTABGA 200 TA «TONG YULDUZI»

To'raqo'rg'on tumanidagi 29-umumta'lim maktabi Gulqishlog'ida joylashgan. O'z nomiga munosib bu qishloqda ko'zingizni, dilingizni yashnatuvchi rang-barang gullarni uchratasiz. Zero, gullar bor joyda obodlik, ko'rkamlik va ozodalik bor. Ayniqsa, har bir xonadonda rayhon isif urub



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

tursa, qanday yaxshi. Ana shunday sog'lom muhitda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarning kelajagi porloqdir.

– «Sog'lom bola yili»da maktabimiz qayta ta'mirlandi. Bilim maskanimizda 860 nafar o'quvchiga o'z kasbining bilimdonlari bo'lgan 56 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya beradi, – deydi maktab rahbari Barchinoy opa Ilyosova. – Maktabimizda 16 ta fan, 6 ta sport, 4 ta kasbga yo'naltirilgan to'garaklar faoliyat yuritadi. Matematika fani o'qituvchisi Xursandboy Yaxshiboyev, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi G'ayratjon G'aprov, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Diloromxon Qodirova kabi fidoyi ustozlarimiz bor ekan, iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarimiz soni ortib boraveradi.

Darvoqe, ushbu maktab o'quvchilari ham «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishar ekan. Maktab rahbari 2015-yilda ham «Tong yulduzi» gazetasiga 200 nusxa obuna bo'lishlarini ta'kidladilar.



Z. MAMATQULOVA olgan suratlar

KOSONSOY BILIMDONLARI

Kosonsoy tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli umumta'lim maktablari joriy yilda 393 ta sport seksiyalarida 6352 nafar o'quvchilar mashg'ulotlar olib bormoqda. Shuningdek, 1105 ta fan, hunarga oid to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ularga 27808 nafar o'quvchilar jalb etilgan.



SHOIR NOMI BILAN ATALADI

Tumandagi barcha ta'lim muassasalarida dushanba – siyosiy yangiliklardan xabardor bo'lish kuni, seshanba – sport-sog'lomlashtirish kuni, chorshanba – ma'naviyat kuni, payshanba – turli tadbirlar kuni, juma – yaxshi kayfiyat kuni, shanba – tarbiyaviy soatlar kuni deb belgilandi, – deydi Kosonsoy tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi ma'naviy va ma'rifiy ishlar sho'ba rahbari Ahmadjon OG'LANOV.

Hafta kunlarining bunday nomlanishi o'quvchilarimizning ma'naviy olamini yanada boyitmoqda, ularni mehnatsevarlikka o'rgatib, o'zaro hurmat, do'stlik kabi xislatlarni shakllantirmoqda.

Bugungi kunda tumandagi maktablarda jami 50 ta «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkiloti hamda «Kamalok» bolalar tashkiloti



Kosonsoy shahri, Sa'diy Sheroziy mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 2-umumta'lim maktabi Mustaqilligimizning 23 yilligi arafasida, yangi o'quv yili oldidan qaytadan to'liq ta'mirlandi.

Bugungi kunda Muhriddin aka Kotibov rahbarlik qilayotgan 77 nafar o'qituvchilar jamoasi 1429 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda.

Maktabda jami o'quvchilar 42 ta sinfga jamlangan. Maktabni aylanar ekanmiz, ilm dargohidagi tartib-intizom, orastalikni ko'rib, zavqimiz oshdi. Maktabning boy kutubxonasi ham bo'lib, u yer kitobsevar o'quvchilar bilan gavjum ekan.

Men Ibrohim Jobirxonov 9-«D» sinfda o'qiyman. Maktabimizda turli fanlar bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, darsdan bo'sh vaqtimda ingliz tili va matematika to'garagiga qatnashaman. Badiiy kitoblar o'qishni yoqtiram.

Biz ta'lim-tarbiya olayotgan ushbu maktab ulug'



jamoasi respublika bosqichida qatnashib, faxrli 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Tumandagi barcha ta'lim muassasalari kutubxonachilarining samarali mehnati bois, kitobxon, gazetxon o'quvchilar soni ortib bormoqda. Zero, ezgu maqsadlarga yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqali erishiladi.

faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Tuman o'quvchilarining 12338 nafari «Kamalok» bolalar tashkiloti a'zolaridir. Maktablardagi 50 nafar bolalar bosh yetakchilari va sardorlari tuman «Kamolot» YOIH bilan hamkorlikda joylarda turli mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlari, sport tadbirlari, bellashuvlar tashkil etmoqdalar. O'quvchilar ko'plab tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblar safidan joy olishmoqda.

Jumladan, 50-umumta'lim maktabining «Yashil chiroq» jamoasi respublika bosqichida qatnashib, faxrli 2-o'rin sohibi bo'ldi.



bobomiz, shoh va shoir nomi bilan ataladi. Shu bois, biz o'quvchilar ham buyuk bobokalonimiz singari ilm cho'qqilarini egallab, kelgusida yurt koriga yaraydigan inson bo'lib yetishishga harakat qilamiz.

Suhbatimizga maktab o'quvchilari ham kelib qo'shilishdi. Ular bizning tahririyatdan kelganimizni bilishgach, «Tong yulduzi» ularning sevimli nashrlaridan biri ekanligini, kelgusi yil uchun, albatta, obuna bo'lishlarini aytishdi.

O'quvchilarga o'qishlarida katta muvaffaqiyatlar tilab, xayrlashdik.

TA'LIM-TARBIYA FIDOYISI

Namangan tumanidagi 22-umumta'lim maktabiga kirib borganimizda yo'lakda maktab rahbari darsdan chiqqan 1-sinf o'quvchisini savolga tutayotgan ekan. Biz ham biroz muddat bolakayning dona-dona javobiga mahliyo bo'lib qoldik. Ustoz bizni ko'rib, o'quvchi bilan xayrlashdi-da, «Bu – mening nabiram», deya faxrlanib qo'ydi. Biz ham shaxdam qadam tashlab o'z uyiga yo'l olgan bolakayga havas bilan qarab qoldik.

Maktab rahbari Sharobiddin Umarovning faxrlanganicha bor. Chunki o'zi ham shu maktabning sobiq o'quvchisi. Mana 34 yildirki, ustoz o'quvchilar davrasida. Bugungi kunda maktabda faoliyat yuritayotgan ustozlarning aksariyati Sharobiddin akaning sobiq o'quvchilari hisoblanadi.



Mustaqillik yillarida o'qituvchilarning mehnati qadr topdi. Kuni kecha respublikamizda 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni keng nishonlandi. Fursatdan foydalanib, respublikamiz o'qituvchilariga iste'dodli o'g'il-qizlarga ta'lim-tarbiya berishda kuch-quvvat tilayman, hamisha o'z kasblaridan faxrlanib yurishsin, – deydi maktab rahbari Sharobiddin Umarov.

Biz ham tinib-tinchimas, o'quvchi va o'qituvchilarni hurmat qiladigan, ularni o'z ortidan ergashtira oladigan maktab rahbariga baxt va omad tiladik.



Alisher FAYZIYEV olgan suratlar

Lesson 5



ANCIENT MONUMENTS

In Namangan many architectural memories as Mulla Qirg'iz madrasa and Ota Valixon mosque. Also there are 85 archeological and near 15 architectural monuments in this region. The remainders of old cities and fortresses are Axsikent, Munchoqtepa, Oyritom, Mug'tepa (ancient period); from the architectural memory is mosque of Jome (XVIII century), the madrasa of Chodak and Shayx Ishaq Eshon, Ota Valixon, Haqulobod mosques, Yusupxon Eshon, Mavlono Lutfullo Chustiy are the architectural collections, there are also madrasa of G'oyib Nazar and Mulla Qirg'iz.

In Independence years this region changed completely. Wide and smooth roads, new modern houses, lyceums, collages, schools, playgrounds for children and beautiful shop, markets were built.



Nizomiddin olgan surat

In To'raqo'rg'on region in 12 th school there are a lot of talented pupils. One of them studies in 7-«B» form. – I like reading stories and fairy – tales in English and I want that in this newspaper will be more short stories, – said Khayotxon KOMILJONOVA.

– We are very fond of learning English. We always observe with great interest the English page in this newspaper, because there are many interesting themes, exercises, riddles, tongue twisters in it, – said other pupils in this class.

HOW MANY SYLLABLES?
(Nechta bo'g'in bor?)

COUNT THE SYLLABLES IN THESE WORDS:



seed

1 2 3



cotton

1 2 3



pumpkin

1 2 3



underground

2 3 4



flower

1 2 3



pencil

2 3 4



FALL (KUZ)

Down, down!
Yellow and brown
The leaves are falling
Over the town.

September is a time
Of beginning for all,
Beginning of school
Beginning of fall.

The sunflower children
Not to the sun.
Summer is over,
Fall has begun!

Tongue twisters
(Tez aytishlar)

She sells seashells on the seashore.

Tree free throws, the instinct of an extinct insect stinks.

JOKE (LATIFA)

Teacher: – Give me three reasons why the world is round.

Pupil: – Well my dad says so, my mum says so and you say so!



ANTONYMS

answer	—	false
day		question
sunny		night
true		disagree
agree		cloudy
empty		plural
first		right
ill		full
left		last
singular		healthy

HIKMAT IZLAB YASHAYDI

Ijod – sirli, sehirli olam. Bu mo'jizakor olamga qadam qo'ygan inson borki, qalbi go'zal va ezgu tuyg'ularga esh bo'ladi. She'riyatga bo'lgan kuchli ishtiyoq murg'ak yuraklarga cho'g' tashlaydi.

Gullar shahri – so'lim Namanganda ham ana shu maftunkor dunyoga hayrat va hayajon ila qadam qo'yayotgan, beg'ubor qalbida olamcha orzular bilan yashayotgan ijodkor tengdoshlaringiz talaygina. Ular borliqqa o'zgacha nigoh bilan qaraydilar, atrofdagi voqea-hodisalardan hikmat izlaydilar. Topganlari, anglaganlari she'r bo'lib yuragiga quyiladi va beixtiyor qog'oz qoralaydilar.

Yosh qalamkashlarning she'riy mashqlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularning ijodida Vatanga, onaga, ustozga ehtirom mavzulari yetakchilik qilishining guvohi bo'lamiz. Istiqloq tufayli yurtimizda bo'layotgan ulkan o'zgarishlardan quvonib, zavqlanib, yurt ta'rifiga yangi-yangi tashbehtar izlashadi.

Bu izlanishlar zamirida, eng avvalo, mehnat yotadi. Shunday ekan, yosh ijodkorlarimizga kitobga habiblikni tilaymiz.

Quyida namanganlik tengdoshlaringiz ijodidan namunalar o'qiydiz.

ZAMONBEKA

VATAN

Vatan, sen nimasan, ayt,
Bunchalar noming ulug'?!
Kam senga bitsak ming bayt,
Tuprog'ing buncha qutlug'?!

Seni desam, quvonchdan,
Zavqqa to'lar yuragim.
Mudom gullab, yashnagin,
Shudir mening tilagim.

Tuprog'ingda tabarruk,
Bobolarning izi bor.
Ular ruhi shod bo'lib,
Senga bo'lar madadkor.

Kerak bo'lsa so'ragin,
Fido senga jon-tanim.
Ulug'lardan ulug'im,
O'zbekiston – Vatanim!

Mushtariy QOSIMOVA,
Namangan shahridagi
58-Davlat ixtisos-
lashtirilgan umumta'lim
maktabining
5-sinf o'quvchisi



NAMANGANIM

Ona shahrim o'zingsan,
Iftixorim, savlatim.
Uyim, maktab, mahallam,
O'zing borim, davlatim.

Gullar shahri – chamanim,
Suyanganim o'zingsan.
Har ishda madadkorim,
Tayanganim o'zingsan!

Jasurbek ABDURAHMONOV,
Uychi tumanidagi
22-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

GULLAR SHAHRIM

Gullar shahri – Namanganim,
Poylaringga sadqa jonim.
Sening taftli quchog'ingda,
Xushhol o'tar har bir onim.

Osmono'par binolaring,
Ko'rib quvnaydi ko'zim.
Qalbdagi jo'shar iftixor,
Yurakda ezgu so'zim.

Erka bir qizing bo'lib,
Ulg'ayish qanday soz-a?!
Bugun ko'rk-u jamoling,
Yurtda bo'ldi ovoza.

Ko'chalaring keng, ravon,
Tunlari ham charag'on.
Seni hur, obod ko'rib,
Kuylayman zavqqa to'lib.

Xolida AHMADJONOVA,
Mingbuloq tumanidagi
13-DIMI o'quvchisi



MEHRIBONIM USTOZIM

Fan bog'ining bog'boni,
Mehribonim ustozim.
Yo'llarim charog'boni,
Xush zabanim, ustozim.

Har so'zi hikmatga boy,
Boldek laziz, ustozim.
Bir umr qarzdorman,
Sizdan, aziz ustozim.

Siz borsizki, baralla,
Yangrar mag'rur ovozim.
Dunyo turguncha turing,
Mehribonim, ustozim!

Jamshidbek PO'LATOV,
Chortoq shahridagi
40-umumta'lim
maktabining
5-sinf o'quvchisi

MO'YQALAM SEHRI

Namangan tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi Sarvinoz Xoliqberdiyeva bo'sh vaqtlarida turli mavzularda rasm chizadi. Ustozi, 2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Jo'raxon Norqo'ziyeva yordamida o'qish, matematika, ona tili singari fanlar qatorida tasviriy san'at sirlarini ham puxta o'rganib kelmoqda. Sarvinozning kelgusida bundan-da chiroyli rasmlar chizib, atrofdagilarga quvonch ulashishiga ishonamiz.

YAGONAM O'ZING

Jahon ichra yagonam Vatani,
Sen o'zingsan nomus, orimiz.
Ajodlardan muqaddas meros,
G'ururimiz, iftixorimiz.

Quchog'ingda mehringga qonib,
Kamol topib, kuchga to'laylik.
Xizmatingga doimo tayyor,
Sog'lom, zukko avlod bo'laylik.

Nozima YO'LDOSHALIYEVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
13-umumta'lim
maktabi o'quvchisi




Muzaffar



Shohruxbek

Chortoq tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Shohruxbek Rahimjonov, 6-sinf o'quvchisi Muzaffar Boymirzayev rasm chizishga juda qiziqishadi. Ular o'z chizgan rasmlarini «Obod manzillar» deb nomlashibdi.

– Obodlik, avvalo, ostonamizdan boshlanadi. Bizning Chortog'imiz, maktabimiz go'zal va obod, — deya faxrlanishdi maktabdoshlar.



TUMANDA BIRINCHI

Maktab o'quvchilarini 2013-2014-o'quv yillaridagi bilim samaradorligi 80,2 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich yangi o'quv yilidan 100 foizga oshadi.

Namangan tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchilarining bo'sh vaqtlari mazmunli o'tmoqda. Chunki ular o'zlarini xohlagan maktab va maktabdan tashqari to'garaklarga a'zo. Jumladan, maktabda tashkil etilgan 3 ta kasbga yo'naltiruvchi to'garaklarga 60 nafar o'quvchi, 9 ta sport to'garagiga 330 nafar, sport maktabiga 122 nafar, musiqa maktabiga 25 nafar, Barkamol avlod markaziga 48 nafar, ustoz-shogird yo'nalishiga 12 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

Maktabning 10 nafar o'qituvchisi «Ustoz-shogird» yo'nalishida faoliyat yuritadi. Maktab matematika, ingliz tili, geografiya fanlaridan tayanch maktabidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi M. Ergasheva tuman

miqyosida «Mahorat maktabi» o'qituvchisi hisoblanadi. Bilim maskani psixologi R. Tillayevaning ish tajribasi viloyat miqyosida ommlashtirilgan.

9-sinf o'quvchisi Kamron Yo'ldoshboyev hamda 7-sinf o'quvchisi Shodiyor Tursunov Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi yosh ijrochilar Respublika ko'rik-tanlovida milliy cholg'ular yo'nalishida qatnashib, faxrli 1- va 2-o'rinlarga loyiq ko'ridi.

O'tgan o'quv yili yakuniga ko'ra maktab jamoasi «Bilimlar bellashuvi» tuman

bosqichida faxrli 1-o'rinni egallagan. Ammo maktab

o'quvchilari bo'sh kelishmaydi, chunki ular mazkur bellashuvning Respublika bosqichida birinchi o'rinni olish uchun yanada ko'proq o'qib, izlanadilar. Bu borada bilimdonlarga omad va sabr-toqat tilaymiz.



— Gullarni parvarishlash har bir o'quvchimga zavq bag'ishlaydi, — deydi maktab direktori Matluba TO'YCHIYEVA.

SPORTSEVARLAR

MASKANI

Namangan shahridagi 7-umumta'lim maktabi viloyatda o'z o'rniga ega. Har bir otaxon farzandini shu maktabda o'qishini juda xohlaydi. Shu bois, ushbu maktabda viloyatning turli tumanlaridan kelgan o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi.

Maktabda 2873 nafar o'quvchi bo'lib, ularga 122 nafar pedagoglar saboq beradi. 114 ta fan, 8 ta sport to'garaklari faoliyat yuritadi. Maktab «Mahoratli ustozlar» maqomini olgan.

O'quvchilar ko'plab respublika va xalqaro tanlovlarda, sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lg'a kiritib kelishmoqda. Jumladan, 2014-yilda «Huquq bilimdonlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egallashdi. Maktabda tashkil etilgan «Penchak Silat» sport to'garagi a'zolaridan olti nafari jahon chempioni bo'lishdi.

— Maktabimiz o'qituvchilari ham sportni sevishadi. O'zim rus tili va adabiyoti fanidan dars bersam-da, stol tennisi bilan shug'ullanaman, — deydi Xalq ta'limi a'lochisi, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora opa Ermatova. — Men shu maktabning sobiq o'quvchisiman. Bugun men uchun qadrdon bo'lgan maktabimda ish boshlaganimga ham 35 yil to'libdi. Bilimdon, sportsevar o'quvchilarim bilan faxrlanaman.

9-sinf o'quvchilari Mahmudjon Qoriyev, Jahongir Rahimjonov

maktabdagi sport to'garagi a'zosi. Ustozi, O'zbekiston Penchak Silat federatsiyasi bosh murabbiyi Abdulla aka Toshboyevdan mazkur jang san'atining sir-asrorlarini o'rganib kelishmoqda. Bugungi kunda mazkur sport turiga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Biz o'quvchilardan



bu qanday sport turi, deb so'raganimizda, ular quyidagilarni gapirib berishdi.

— Penchak Silat jang san'ati Indoneziya va Malaziya mamlakatlarida asrlar davomida shakllanib kelgan sport turidir. Mazkur yakkakurash turida jang san'atlarining texnikasi va usullari mujassam bo'lib, to'rt tamoyilga asoslanadi: ma'naviyat, san'at, madaniyat va o'zini himoya qilish, — deydi Mahmudjon.

O'qituvchi va o'quvchilar bilan bo'lgan suhbatimizdan shunday xulosaga keldikki, ushbu maktabni sportsevarlar maskani, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, maktab rahbari Feruza opa Ramazonova bu borada barcha sharoitlarni yaratib bergan. Zero, sog'lom avlodni tarbiyalashda sport va jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Sahifani F.ABDUSAMAD qizi tayyorladi.



USTOZ O'GITI

Namangan tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 23-umumta'lim maktabiga kirib borganimizda sport zali yosh sportchilar bilan gavjum edi. Bir-biridan chaqqon, epechil sportsevarlar sinflararo musobaqani boshlab yuborishgan ekan. Biz ham biroz muddat musobaqani tomosha qildik. Tanaffus vaqtida esa o'quvchilar bilan suhbatlashdik:

— Men musiqa, kimyo, ingliz tili fanlariga va sportga juda qiziqaman. Sport insonni turli salbiy ta'sirlardan asraydi, — deydi 7-«B» sinf o'quvchisi Asilbek Abduvaliyev. — Ustozim Abdumutal Dadaboyev bizga jismoniy tarbiya fanidan saboq beradilar. Ular hamisha bizga «Sportga qiziqish sog'lom bo'lishga intilishdir», deydlar. Biz o'quvchilar doimo ustoz o'g'itiga amal qilamiz.

Mazkur maktabda Asilbek kabi sportsevar o'quvchilar talaygina bo'lib, sport ularni sog'lom, kuchli, mard va qat'iyatli qilib kamolga yetkazishini yaxshi bilishadi. Vaholanki, sog'lom, barkamol avlod O'zbekistonimizning ishonchli tayanchi va qudratli kuchidir.



N. SULTONOV olgan suratlar

SARDORLARNING ORZUSI

Algebra fani o'qituvchisi bo'lishmoqchi.

To'ra qo'rg'on tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf sardori Gulbahor Hoshimjonova hamda 7-«B» sinf sardori Madina Muxtorjonovani suhbatga tortdik.



– O'qib-izlanishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan ushbu maskanda nima uchun besh bahoga o'qimasligimiz kerak? Men, albatta, «A»chilar a'lochilar bo'lishiga erishaman, – deydi Gulbahor.

– Bizning sinfimizda a'lochilar juda ko'p. Tanaffus vaqtida, tarbiyaviy soatlarda «Tong yulduzi» gazetasini muntazam o'qib boramiz. Undagi boshqotirma, topishmoqlarni topishga harakat qilamiz, hikoya va maqolalarni qiziqib o'qiyamiz, – deydi 7-«B» sinf sardori Madina Muxtorjonova.

Eng qizig'i, sardorlarning orzulari bir xil ekan. Ikkisi ham kelgusida matematika fani o'qituvchisi bo'lishni xohlashadi. Nima ham derdik, orzuvingiz ijobat bo'lsin, deymiz-da!




Z. MAMATQULOVA olgan suratlar

Madina Do'stmuhammedova ham 12-umumta'lim maktabining 7-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U ona tili va adabiyoti, algebra, rus tili, fizika fanlarini yaxshi ko'radi.

BILMAGANGA MURAKKAB, BILGANGA OSON FAN

Shu bilan birga, ingliz tilini mukammal o'rganishga astoydil bel bog'lagan. Madina algebra faniga juda qiziqadi. Ustozi bilan bu fanga oid kasrli ifodalar, funksiyalarga oid tenglamalarni yechishni yoqtiradi. «Matematika murakkab fan, lekin unga juda qiziqaman», deydi Madina.



U darslardan bo'sh qoldi deguncha, qo'liga igna-ip olib, ro'zg'orga kerakli buyumlardan tortib, jajjigina ko'ylaklarni tikishni uddasidan chiqadi. Madina kelajakda dizayner bo'lishni orzu qiladi.

Ha, orzu insonga qanot bag'ishlaydi. Orzuning ijobati esa baxtdir. Ana shu baxt Madina va uning maktabdoshlariga nasib etsin.


TOPISHMOQ

Kiyimlarni ataylab,
Silab chiqar avaylab.
Tekis bo'ladi gazmol,
Nomidir uning ...



MANZURA

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIRI!



«SO'LIM DIYOR» AYLANMA KROSSVORDI

1. Namangan viloyati joylashgan vodi. 2. Ayollar o'rtasida birinchi o'zbek xalqaro shaxmat grossmeysteri. 3. Viloyatdagi shaharcha. 4. Miloddan avvalgi III, eramizning XVIII asri davriga mansub tarixiy poytaxt. 5. Antik davrga xos tarixiy istehkom hududi. 6. Dam olish maskani. 7. Chotqol tog'laridan boshlanuvchi daryolardan biri. 8. Viloyatning sharqiy qismida joylashgan tuman. 9. «Bog' ko'cha bolalari» asari muallifi, namanganlik shoir. 10. Oliy liga futbol jamoasi.

MUAMMONOMA

Kalit so'zlar: 1. O'zbekiston milliy terma jamoasida ishtirok etayotgan namanganlik taniqli futbolchi – 4, 8, 6, 2. 3, 14, 15, 12, 8, 4, 5.
2. Shveysariya bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi – 13, 12, 1, 7, 2, 12.
3. Ipak qurti hosili – 10, 6, 2, 2, 3.
4. Binokorlik ashysosi – 9, 6, 11, 7.

Kalit so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi muammonomani hal etish orqali viloyatdagi sport inshootlari va tennis bo'yicha jahon birinchiligi turnirini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i, tahrir hay'ati a'zosi S. Turg'unovga, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'limi bosh mutaxassisi X. Abdurahmonovga va barcha mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

MAXSUS SONNI TAYYORLAGANLAR:

F. Adilova, D. Hotamova, J. Matyoqubov, M. Ubaydullayeva, D. Shakirova, O. Tursunboyeva, N. Abdullayeva, Z. Mamatqulova.

8

6-oktabr 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 29728
Buyurtma – S 1054